

INTERNET-MAGAZINLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNING ASOSIY TURLARI

Suyarov Akram Musayevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
axborot texnologiyalari kafedrası PhD, dotsent

akramsuyarov@mail.ru

Norboyev Ja'far Zafarovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada internet-magazinlarning mazmuni, shakllanish jarayoni va zamonaviy iqtisodiyotdagi o'zni atroflicha yoritilgan. Tadqiqot davomida internet-magazin tushunchasining mohiyati ochib berilib, ularning elektron tijorat tizimidagi ahamiyati tahlil qilindi. Internet-magazinlarning an'anaviy savdo shakllaridan farqli jihatlari ko'rsatib berildi. Shuningdek, ularning paydo bo'lishiga ta'sir etgan omillar va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Maqolada internet-magazinlarning asosiy turlari alohida yo'nalishlar bo'yicha tasniflandi. Har bir turining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilindi. Internet-magazinlarning iste'molchilar va tadbirkorlar uchun yaratayotgan imkoniyatlari yoritildi. Shu bilan birga, onlayn savdoning mavjud muammolari ham ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari internet-magazinlarni rivojlantirish istiqbollari belgilashga xizmat qiladi. Maqola elektron tijoratni takomillashtirishga oid xulosalarni o'z ichiga oladi. Olingan natijalar iqtisodiy amaliyotda foydalanish uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: internet-magazin, elektron tijorat, onlayn savdo, raqamli iqtisodiyot, elektron platforma, B2B modeli, B2C modeli, marketplace.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet tarmog'ining keng miqyosda tarqalishi barcha iqtisodiy jarayonlarga, ayniqsa savdo sohasiga sezilarli ta'sir qilmoqda. An'anaviy savdo shakllari asta-sekin elektron savdo

tizimlari bilan to'ldirilib, zamonaviy iqtisodiyotda yangi turdagi iqtisodiy munosabatlar qurilmoqda. Shular jumlasidan internet-magazinlar elektron tijoratning eng ommaviy va samarali shakllaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Internet-magazinlar orqali mahsulot va xizmatlarni masofadan turib sotish va xarid qilish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa iste'molchilarga vaqt va xarajatlarni tejash, sotuvchilarga esa bozor qamrovini kengaytirish va savdo jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Internet-magazinlarning jadal rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining takomillashuvi, mobil qurilmalar va to'lov tizimlarining keng qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda internet-magazinlar nafaqat savdo vositasi, balki raqamli iqtisodiyot rivojining muhim omili sifatida ham e'tirof berilmoqda. Ular kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, raqobat muhitini shakllantirishga xizmat ko'rsatadi. Shu bilan birga, internet-magazinlar orqali shaffoflikni oshirish, narxlarni solishtirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish imkoniyatlari ham kuchaymoqda.

Lekin internet-magazinlar faoliyati bilan bog'liq ayrim muammolar ham mavjud. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, onlayn to'lovlar ishonchliligi va logistika jarayonlarining samaradorligi kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarni hal etish internet-magazinlar barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim omil bo'ladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi internet-magazinlar tushunchasini ochib berish, ularning asosiy turlarini tasniflash hamda zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari elektron tijoratni rivojlantirish, savdo jarayonlarini raqamlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyot sharhi

Internet-magazin zamonaviy elektron tijorat tizimining muhim elementi bo'lib, mahsulotlar va xizmatlarni internet tarmog'i orqali sotish va xarid qilish imkonini beruvchi virtual savdo maydonini anglatadi. Internet-magazinlar maxsus veb-sayt yoki mobil ilova ko'rinishida faoliyat yuritib, unda mahsulotlar katalogi, ularning narxlari, tavsiflari, buyurtma berish va to'lov mexanizmlari joylashtiriladi. Ushbu savdo shakli an'anaviy

do'konlardan farqli ravishda hududiy chegaralardan xoli bo'lib, xaridorlarga sutkaning istalgan vaqtida savdo amaliyotlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Internet-magazin tushunchasining shakllanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Internet tarmog'ining kengayishi, raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi hamda logistika xizmatlarining takomillashuvi internet-magazinlar ommalashuvining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Natijada savdo jarayoni soddalashtirib, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi aloqalar tezkor va qulay shaklda yo'lga qo'yilmoqda.

Internet-magazinnlarning asosiy vazifasi mahsulotlarni masofadan turib taqdim etish, buyurtmalarni qabul qilish va ularni iste'molchiga yetkazib berishdan iborat. Bunda axborot almashinuvi elektron shaklda amalga oshiriladi, bu esa savdo jarayonlarida inson omilini qisqartirish va xatolik ehtimolini kamaytirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, internet-magazinlar orqali ma'lumotlar bazasini shakllantirish, mijozlar ehtiyojini tahlil qilish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan internet-magazinlar tadbirkorlar uchun xarajatlarni qisqartirish, savdo hududini kengaytirish va biznes samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. An'anaviy savdo nuqtalariga nisbatan ijara xarajatlari, ishchi kuchi va logistika bilan bog'liq xarajatlar kam bo'lishi internet-magazinnlarning ustun jihatlaridan biridir. Bu esa kichik va o'rta biznes subyektlarining bozorga kirishini yengillashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Internet-magazinlar faoliyatiga oid ilmiy manbalar o'rganilib, nazariy qarashlar tahlil qilindi. Taqqoslash usuli orqali internet-magazinnlarning asosiy turlari va xususiyatlari aniqlab berildi. Tizimli yondashuv asosida ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni baholandi. Olingan natijalar asosida umumiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Internet-magazinlar faoliyatini tahlil qilish jarayonida ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda internet-magazinlar elektron tijoratning asosiy vositalaridan biri sifatida savdo jarayonlarini soddalashtirish, tezlashtirish va yanada samarali tashkil etishga xizmat

qilmoqda. Tadqiqot natijalari internet-magazinlarning iqtisodiy samaradorligi an'anaviy savdo shakllariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, internet-magazinlar savdo xarajatlarini kamaytirish orqali tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Jumladan, an'anaviy do'konlarga xos bo'lgan binolarni ijaraga olish, katta hajmdagi ishchi kuchi saqlash va qo'shimcha xizmat xarajatlari internet-magazinlarda nisbatan kam bo'ladi. Bu holat ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda raqobat muhitining kuchayishiga xizmat qiladi.

1-Jadval. Internet-magazinlar faoliyatining asosiy afzalliklari va muammolari

Afzalliklari	Muammolari
Savdo xarajatlarining kamayishi	Axborot xavfsizligi muammolari
Hududiy cheklovlarning mavjud emasligi	Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash zarurati
Xaridorlar uchun qulaylik va vaqt tejalishi	Yetkazib berish jarayonidagi kamchiliklar
Kichik biznes uchun bozorga kirish imkoniyati	Onlayn to'lovlarga ishonch masalasi
Raqobat muhitining kuchayishi	Texnik nosozliklar ehtimoli

Manba: Ushbu tahlil tadqiqodchining o'zi tomonidan ishlab chiqildi.

Internet-magazinlarning iste'molchilar uchun ham bir qator afzalliklari mavjud. Xaridorlar mahsulotlarni turli onlayn platformalarda solishtirib ko'rish, narxlar va sifat ko'rsatkichlarini baholash hamda boshqa foydalanuvchilarning fikrlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa xarid jarayonida ongli va asosli qaror qabul qilishga yordam beradi. Shuningdek, masofadan xarid qilish imkoniyati vaqtni tejash va qulaylikni oshirishga xizmat qiladi.

Biroq amalga oshirilgan tahlillar internet-magazinlar faoliyatida ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni

himoyalash, to'lov tizimlarining ishonchliligi hamda tovarlarni yetkazib berish bilan bog'liq kamchiliklar uchrab turadi. Ushbu omillar ayrim hollarda iste'molchilar ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun internet-magazinlar faoliyatida zamonaviy axborot xavfsizligi texnologiyalarini joriy etish va logistika tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, tadqiqot natijalariga ko'ra internet-magazinlarni rivojlantirish istiqbollari keng ekanligi aniqlandi. Raqamli to'lov tizimlari, mobil texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlarining joriy etilishi internet-magazinlar samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Bu holat elektron tijoratning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchaytiradi hamda zamonaviy bozor infratuzilmasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Internet-magazinlar bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib, savdo jarayonlarining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Ushbu tadqiqot jarayonida internet-magazin tushunchasi atroflicha yoritilib, ularning elektron tijorat tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil etilmoqda. Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, internet-magazinlar savdo jarayonlarini soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va bozor qamrovini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari internet-magazinlarning iste'molchilar va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratishini kasb etmoqda. Xaridorlar uchun vaqt tejalishi, tanlov imkoniyatining kengligi va narxlarni solishtirish qulayligi muhim afzalliklar sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun internet-magazinlar kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, raqobat muhitini kuchaytirish va raqamli bozorda faol ishtirok etish imkonini bermoqda.

Lekin internet-magazinlar faoliyatida ayrim muammolar mavjudligi ham ko'rsatdi. Xususan, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash va yetkazib berish jarayonlari bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish internet-magazinlarning barqaror va ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlash uchun muhim roli mavjuddir.

Shunga qaramay, internet-magazinlar raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo munosabatlarining rivojlanishiga kuchli turtki qilmoqda. Ularni zamonaviy texnologiyalar

asosida takomillashtirish, huquqiy va texnik mexanizmlarini mustahkamlash orqali elektron tijoratni yanada rivojlantirish mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari internet-magazinlar faoliyatini yanada samarali tashkil etishda va ularni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Laudon K.C., Traver C.G. *E-Commerce: Business, Technology, Society*. – Pearson Education, 2021.
2. Suyarov A.M. – Ways and models of providing integration of information technology science with mathematical sciences (E3S, 2023)
3. Suyarov A.M. – Formation of information and communication competence of the teacher (Web of Scientist, 2023)
4. Karimov B.X. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
5. Xudoyberdiyev A.A. *Elektron tijorat va internet-savdo tizimlari*. – Toshkent, 2021.
6. OECD. *Electronic Commerce and Digital Economy Report*. – Paris, 2020.
7. Suyarov A., Raximov S., Abduraxmanov M. – Methodology of using IT software tools... (EPESS, 2025)